



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

OLTI DOSTONDA ODAM ATO TIMSOLI TALQINI

Shodmonov Nafas Namozovich,
filologiya fanlari doktori, professor, "Turon" universiteti,
nafasxonshodmonov@gmail.com

Shodmonov G'iyosiddin Nafasovich,
filologiya fanlari bo'yich falsafa doktori, dotsent, Qarshi davlat universiteti,
shodmonov786@gmail.com
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YAFZ6461

Annotatsiya. Maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida keng qo'llanilgan Odam Ato, Havvo va ularning farzandlari timsollari bir guruh rus shoirlari tomonidan XX asrning boshida tatbiq etilgan odamiyot (adamizm) ijodiy yo'nalishi asosida tadqiq qilingan. Sho'rolar davrida odamiyot yo'nalishi inkor etilgan va taqiqlangan bo'lsa-da, jahon adabiyoti va adabiyotshunosligida u rivojlantirilganiga diqqat qaratilgan. Yo'nalishning asosiy xususiyati insonning idealga qaytish potensialini tushunishga intilish va talqin etish ekani ko'rsatib berilgan.

Navoiy asarlarida komil inson g'oyasining ilgari surilishida Odam Ato timsolidan unumli foydalanilgani tahlilga tortilgan. Navoiy ijodida odamiyotning asosiy xususiyatlaridan biri Odam Ato qiyofasining o'ziga xoslik va poklik ramzi sifatida taqdim etilishi hamda poetik imkoniyatlarni kengaytirgani asoslangan. Shuningdek, Navoiy ijodi poetikaga doir har qanday nazariy qonuniyatlar talabiga javob berishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Odam Ato, odamiyot, inson mohiyati, ijodiy yo'nalish, ideal, Xamsa, g'azal, doston, komil inson g'oyasi.

THE ILLUSTRATION OF THE MAN IN SIX EPISTLES

Abstract. This article examines the symbolic representation of Adam, Eve, and their descendants in the works of the great thinker Alisher Navoi, in relation to the concept of adamism developed by a group of Russian poets in the early 20th century. Despite the suppression and eventual prohibition of adamism during the Soviet era, the study highlights its development within global literature and literary scholarship. The article demonstrates that the core principle of adamism is the interpretation of humanity's potential to return to an ideal state.

The image of Adam is analyzed as a central motif in Navoi's works, where it is utilized to promote the concept of the perfect human being. The study argues that one of the defining features of adamism in Navoi's poetry is the portrayal of Adam as a symbol of originality, purity, and an expanded poetic potential. Furthermore, the article asserts that Navoi's works conform to the theoretical principles of poetics, meeting the established criteria for literary excellence.

Keywords: Navoi, Adam, adamism, creative direction, ideal, Khamsa, ghazal, epic, concept of the perfect human.

Dunyo adabiyoti va adabiyotshunosligida akmeizm bilan birga "adamizm" degan yo'nalish ham e'tirof etilganiga yuz yildan oshgan [1910-yillarda rus she'riyatida paydo bo'lgan ijodiy yo'nalish]. Akmeistlar mavzu va tasvirlarning moddiylik, obyektivligi, so'zning aniqligini e'tirof qiladilar. Akmeizmning o'ziga xosligi: 1) Alohida narsa va har bir hayotiy hodisaning o'z-o'zicha qadrlanishi; 2) san'atning maqsadi inson borlig'ini ulug'lash, deb bilish; 3) nomukammal hayot hodisalarining mukammal

badiiy tasviriga erishish]. Bu istilohni biz mumtoz adabiyotimiz tiliga moslashtirib odamiyot deb atashni ma'qul topdik. Odamiyot haqida dastlabki ma'lumotni Aflotun va Aristotel kabi qadimgi faylasuflarning asarlarida topish mumkin. Ular odamda azaliy mukammallik mavjudligini, uning yuksak ma'naviy dunyosini va u erishishi mumkin bo'lgan ideal holatni tasvirlab berishdi. Biroq qadimgi yunon falsafasida odamiyot badiiy ijod uchun asos emas, balki nazariy tushuncha edi. Odamiyotning badiiy ijodga ta'siri va undagi o'rni N.Gumilev va S.Gorodetskiy kabi ijodkorlar tomonidan asoslangan [Литературная энциклопедия]. Jahon adabiyotining eng atoqli namoyandalari Dante Aligiyeri, Petrarka, Jan-Jak Russo, F.Gyote, T.Mann, A.Kamyu, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, I.Turgenevlar ijodida bu yo'nalish ustuvor bo'lgani xususida ham fikrlar bildirilgan [<https://mebelniyguru.ru/wiki/adamizm-v-literature-osobennosti-i-opredelenie>]. Adabiyotshunoslarning fikrlariga ko'ra, odamiyotning mashhur misollaridan biri bu Jon Miltonning (9.12.1608 – 8.11.1674) "Yo'qotilgan Jannat" ("Paradise Lost") epik she'ri bo'lib, u yerda Odam ato va Momo Havvoning jannatdagi hayoti va ularning jinoyat uchun surgun qilinishi tasvirlangan [Писатель Джон Милтон: биография и библиография].

Yo'nalishning asosiy xususiyati bu turli xil ijtimoiy, falsafiy va axloqiy qarashlarni o'z ichiga olgani, insonni va uning qadriyatlarini markazga qo'yuvchi dunyoqarash ekanida namoyon bo'ladi. Unda, ko'pincha, inson mavjudligi mohiyati, uning iroda erkinligi, burch va mas'uliyati, imkoniyatlari chegarasi hamda ong tadriji orqali ijodkorlik fazilati shakllanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, uning idealga qaytish potensialini tushunishga intilish ham nazarda tutiladi. Mualliflar tarixning qulay yo'rig'iga, yovuzlikni yengishga va har bir inson ideal Odam Atoga o'xshashi orqali yaxshiroq dunyoni yaratishga ishonishlarini bildirdilar. Odamiyot insonga oid bo'lgan bir qator jihatlarni Odam Ato, Momo Havvo va ularning farzandlari hayotiga doir umumbashariy muammolarni o'rganishga diqqat qaratadi.

Shuningdek, odamiyot inson yolg'izligi mavzusi bilan bog'liq bo'lib, boshqa adabiy yo'nalishlardan farq qiladi. Unda diqqat qahramonning ichki dunyosiga qaratiladi. Mualliflar odam Atoning obrazidan foydalanib, odatda uning psixologik kechinmalari, fikr-o'ylari va hayot mohiyatni izlashlarini o'rganadilar. Ular inson idealligi va uyg'unligini tiklash yo'llarini topishga intilib, inson tabiatini o'rganishda davom etishadi.

Odamiyotni o'rganish uning ham o'z yo'nalishlari mavjudligini ko'rsatadi. Ular, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1. Odamiyot gumanizm bilan bog'lanadi va insonni dunyoning markazida deb tushuntiradi. Bu yondashuvda insonning imkoniyatlari va axloqiy mas'uliyatlari birlamchi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bu gumanistik yo'nalish deyilishi mumkin.

2. Odamiyot ba'zan ekzistensializm yoki boshqa falsafiy oqimlar bilan ham bog'liq bo'lib, individual shaxsiyatning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu, albatta, uning falsafiy yo'nalishidir.

3. Diniy ma'rifat kontekstida Odam Atoning yer yuzida Alloh taoloning xalifasi sifatida yaratilishi bilan bog'liq holda imon, e'tiqod sofligi, shar'iy hukmlar ustuvorligiga va axloqiy masalalarga ahamiyat qaratishni ifodalaydi.

4. Tasavvuf ta'limoti va adabiyotida odamiyot Allohning olamlar va insonni yaratishida yuqori maqsad mujassam ekani, komil inson tarbiyasi, barcha ilohiy ism va sifatlarning mazhari va hokazolar talqin qilinadi.

Shulardan kelib chiqib, Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilinsa, inson va uning manfaatlari har doim diqqat markazida turgan buyuk tafakkur mahsulining tahlili odamiyot talqinida ham muhim o'rin tutishi aniqlashadi. Buni Odam Ato, Momo Havvo va ularning farzandlari, xususan, Qobil va Hobil obrazlari orqali bildirilgan fikrlar, vujudga keltirilgan badiiy tasvirlarda ko'rish mumkin. Ularning boshi Odam Atoning yaratilishiga bog'liq. Bu yaratilish insonga o'z aslini belgilab olishga yordam beradi. Ya'ni Odam Ato obrazi va uning Alloh taoloning O'z qo'li bilan yaratilishi haqidagi tasvirlar insonda muqaddas hislar, eng oliy tuyg'ularni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Odam Atoning yaratilishi insoniyatga ilohiy kitoblar hisoblangan "Tavrot", "Injil" va "Qur'on" orqali singgan. Jumladan, "Tavrot"ning Ibtido qismida: ²⁶Yana Xudo: "Insonni O'z suratimizga ko'ra O'zimizga o'xshash odamni yarataylik..." dedi. ²⁷Shunday qilib, Xudo odamni O'z suratida, ilohiy suratda yaratdi, deyiladi [Инжил, 1993: 2].

Ma'lumki, shunga shaklan o'xshash bo'lgan, Imom Buxoriy va Muslim o'z kitoblarida Rasululloh s.a.v.dan Abu Hurayra rivoyat qilganiga ko'ra keltirilgan hadisda Alloh Odamni o'z suratida yaratgani va uning bo'yi oltmish ziro' (40 m) bo'lgani (خَلَقَ اللَّهُ (أَدَمَ وَطُولُهُ سِتُّونَ ذِرَاعًا) aytiladi [62-КИТОБ / 62 | Haadis.islom.uz | Нубувват марваридлари]. Bu borada musulmonlar orasida ko'p bahs va munozaralar mavjud. Bahs, asosan, "o'z surati" kalimalari ustida boradi. Ya'ni Odamni O'z suratida, o'ziga o'xshatib yaratdimi? Demak, inson Alloh suratida, Allohning zoti ma'lum, jismi bor, u insonga o'xshaydi, degan xulosaga kelish kerakmi? Aslo yo'q! Bu yerda "o'z"dan murod – "uning"dir. Ya'ni Odamni uning (Odam Atoning o'zining!) suratida yaratdi, deb tushunish kerak. Bunga "Hayratu-l-abror" dostonidagi quyidagi misralar talqinidan ham javob topish mumkin:

Muncha g'aroyibki misol aylading,

Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,

Lek boridin g'araz inson edi.

Turfa kalomingg'a dog'i komil ul,

Sirri nihoningg'a dog'i homil ul [Навоий, 2011:15].

Bundan oldingi va bu baytlardan shunday xulosa kelib chiqadi: Alloh O'z jamoli tamoshosi uchun olamlarni yaratdi, undagi barcha yaratilqlar, jumladan, inson ham Alloh jamoliga mir'ot, ko'zgu qilindi. U qanchalik ko'p narsa yaratmasin, hammasidan murod inson edi. Chunki turfa kalomingga komil ham, pinhon siringni avloddan-avlodga tashib yetkazuvchi ham insondir. Bu yerda, birinchidan, Odamning yaratilishi boshqa yaratilqlar kabi ko'zgu bo'lishi uchunligi ma'lum bo'ladi. Ikkinchidan, moddiy olam intizomini ongli, idrokli moddiy kuch vositasida yuritish uchun O'z xalifasi sifatida Odam yaratilgani va, uchinchidan, Alloh insonni O'z "sirri nihoni"ga homil qilib qo'ydi, xolos. Zero, uning "Sirri nihon"i Zotidir. U Zotni So'fi Olloyor ta'biri bilan aytganda, farishtalar va nabiyar ham fahm eta olmaydilar. Bas, mantiqan Odam vujudida U O'zini oshkor etishi mumkin emas edi. Shuaro surasining 11-oyatida oyatida Allohning hech bir jihatdan o'xshashi yo'q ekani ta'kidlanadi (لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ). Binobarin, inson tanasini Allohga o'xshatish mushabbiha qavmiga xoslik bo'lib qoladi. Bu esa shirkga, kufrga olib boradi.

Navoiyning odamiyotda talqinlari juda teran va chuqurki, ularni bir maqola hajmida tahlil qilish mushkul. Bu yerda biz ulardan ayrimlarini kuzatish bilan cheklanamiz:

Birinchidan, insonni sharif zotligini talqin qilishda Odam Atoning yaratilishidan vosita sifatida foydalaniladi. Zotan, inson Qur'oni Karimning Al-isro surasining 70-oyatida: "Odam bolalarini mukarram qilib yaratdik" (وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ) deyiladi.

Hazrat Navoiy "Mahbubu-l-qulub" asarida: "Odami sharifu-l-kavnayndur" [Навоий, 2011: 534] deydi, ya'ni: "Odamiy ikki dunyoning sharif yaratiqidir". "Saddi Iskandariy" dostonining LXI bobida esa qanday mohiyatga egaligi xususida batafsil talqin bor. Uning birinchi bayti shunday boshlanadi:

Birov ahli ma'ni deyolur o'zin

Ki, Haq ochmish o'lg'ay basirat ko'zin [Навоий, 2011: 391].

Ya'ni, kishi o'zini ma'no ahlidan deb hisoblashi uchun Haq taolo uning basirat ko'zini ochgan, unga shunday ko'zni bergan bo'lishi kerak. Basirat ko'zi deyilganda, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Haq hidoyati bilan aql, tafakkur va hissiyotda mukammallik tushuniladi. Buni Sayyid Ja'far Sajjodiy shunday izohlaydi:

"Basirat quvvat sifatida dilning muqaddas nur bilan munavvar etib, uning vasilasida narsalarning haqiqatlarini va ularning botiniy mohiyatini mushohida, tafakkur qilmoqdir. U ko'z hukmi sifatida bo'lib, uning vasilasida narsalar suratlarining o'zini va ularning zohirini ko'rmoqdir. Basirat yana shuki, hakimlar uni nazarning "quvai oqila"si (ko'rishdagi donolik quvvati) deb ham ataydilar va qayonki muqaddas nurdan ravshanlashsa, Haq taoloning hidoyati bilan hijob(parda)lar undan ko'tariladi". Ayniqsa, olim "Sharhi Manozili-s-soiriyn"dan keltirgan iqtibosda Navoiyning badiiy ifodasiga ham o'xshashlik bor: "Basirat aqliylikka mansub bo'lib, ilohiy nur yorishsa va Haq hidoyati ziyosi bilan surmalansa, ayon va mushohadada xato qilmaydilar, isbotda dalilga muhtoj bo'lmaydilar. Zero, uning mushohadasi Haq nuridadir va unda hech qanday hayrat va sargardonlik yo'qdir" [سید جعفر سجادی 1370: 196].

Yuqoridagi bobda Navoiy ma'no ahli mazkur basirat ko'zi bilan olam go'zalliklarini ko'rganda ularning mohiyatini, eng avvalo, ne suratni ko'rsa, uning yaratuvchi san'atkorini anglashi lozimligini ta'kidlaydi. Naqshni ko'rganda naqshband ijodiy mahoratini g'araz bilmagan kishining naqshdan bahra olishi mumkin emas. Hayot gulshani go'zal yaratiglariga nazar soluvchi ahli binish – mohiyatni ko'ra oluvchi bo'lsa va har bir dilkusho chamanni ko'rsa, ularning bog'boni haqida fikr yuritadi. Basirat ko'zli ahli ma'ni qaysi bir gul-u xushbo'yini uchratsa, bu san'at asarining ichidagi sir haqida tafakkur qiladi. Umuman, cheksiz koinotdagi muallaqlik bo'ladimi, nozanin niholmi, yer yuzining ajoyibot va g'aroyibotlarga boy turli go'shalarimi, basirat ko'zli kishi hammasini ko'radi. Lekin u o'ziga yaxshi nazar qilsa, hammasidan o'z ma'naviy olamining g'oyat qiymatli ajoyibliklarga boyligini ham angelaydi.

Ne ma'niki istar, o'zindin topar,

Jahonda kezarning ne ma'nisi bor? [Навоий, 2011: 394]

Alisher Navoiy talqiniga ko'ra, inson mukammal yaratilgan, uning ichida "sirlar xazinasi" yashirilgani bilan birga, unga cheksiz imkoniyatlar berilgan. Bu mukammallikning sababi, insonning Allohning O'zi tomonidan yaratilganidir. Bob mavzusida "Xammartu tiynata Odama biyadiy arbaina sabohan" (Odam loyining xamirini qirq sabo (kecha-kunduz) qoridim) hadisi keltirilgani shu fikrni tasdiqlaydi [https://www.bing.com/search?pglt=41&q=Xammartu+tiynata+Odama+biyadiy&cvid=6803c09c]. Shular sabab inson sharifdir.

Diqqat qilinsa, bu yerda gap faqat Odam Ato va insoniyat fazilatlari, imkoniyatlari haqida bormoqda. Dostonning komil inson g'oyasi shuni taqozo qiladi. Shuning uchun ham Odam Ato timsolida insoniyatning bu qadar ulug'lanishi, insonparvarlikning bunday oliy darajasi, hatto, Navoiyning boshqa asarlarida ham uchramaydi. Dialektikaning ikkinchi tomoni boshqa bir necha o'rinlarda keltirilgani kuzatiladi. Misol uchun, "Lisonu-t-tayr" dostonida keltirilgan kichik bir hikoyatni keltirish mumkin. U "Odam Safiy alayhissalom hikoyati" deb nomlangan:

Xayli insonning otasi – Bulbashar

Kim, oni xalq etti Hayyi dodgar.

Boshig'a qo'ydi hidoyat afsarin,

Tojig'a tikti nubuvvat gavharin.

Qildilar topqoch bu yanglig' izzu joh,

Tufrog'in xayli maloyik sajdagoh... [Навоий, 2011: 142]

Demak, insonda xotoga yo'l qo'yish, gunohga qo'l urish ham merosiy. U Odam Atodan meros. Lekin unga tavba qilish bilan o'z asliy saodatini topish imkoni ham berilgan. Gunohdan ana shu yo'l – tavba – pushaymonlik, kamtarlik va xokisorlik yo'lga qaytib poklanish imkoniyatidan foydalanmaslik badbaxtlikdir! Iblisning la'natlanishining sababi – shu. Navoiy bu qabohatni Odam Ato va kibrga muhtalo iblis munosabatlari orqali talqin qiladi. Bu hol "Lisonu-t-tayr"ning XIX bobida shunday ifodalangan: Tangri taolo Odamni yaratdi. Bunda u O'zini oshiq va Odamni ma'shuq sifatida namoyon qildi. Va U farishtalar barchasini insonlarning eng yaxshisi, xayrulbashar bo'lgan Odamga sajda qilishga buyurdi. Iblisdan boshqa ularning hammalari aytilganidek sajda qildilar. Iblis kibr qildi. Vaholanki:

Ul necha ming yil ibodat aylagan,

Amr ila taqvoyu toat aylagan.

Chun g'urur etti ishiga oshkor,

Xayl aro rad qildi oni kirdikor [Навоий, 2011: 173].

Rad qilingan shayton abadiy la'natga giriftor bo'ldi. U ham tavba qilsa, yana rahmatga erishsa bo'lmasmidi? Yo'q, chunki u ma'nan pok qilib yaratilmagan. Ya'ni, aslida, uning taqdiri shunday edi.

Rivoyat qilishlaricha, shayton bir kuni Muso alayhissalomga yo'liqib qoladi. Kalimulloh undan nega Odamga sajda qilmaganini so'raydilar. Shayton bu o'zining taqdiri ekanini aytadi.

Inson taqdiri dunyoviy va uxroviy hayotining hamma masalasini hal qilsa, bu dunyoviy hayoti imtihonligining ma'nosi nimada? Buning uchun taqdir va aqoid ulamolari ta'kidlab ko'rsatishgan iroda erkinligi masalasini to'g'ri anglash lozim. Ulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, har bir insonga taqdir unga berilgan potensiyadir. Ong, aql, tafakkur, zakovat kabi xususiyatlar salohiyati, kuchi va, albatta, jismoniy imkoniyatlar taqdir qilib berilgandir. Ulardan qanday foydalanish esa bandasining ishi. Shuning uchun ham ulug' mutafakkir Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" va "Lisonu-t-tayr"ning ko'rib o'tilgan boblarida talqin qilingan fikrlar ana shu nuqtayi nazarlarga mos, deyish mumkin.

Ikkinchidan, Odam Ato timsoli orqali Muhammad alayhissalomni ulug'lash juda ko'p o'rinlarda talqin qilinadi. Ma'lumki, Islom aqidalariga ko'ra, musulmon kishi Alloh taoloning birligi bilan birga Muhammad alayhissalom uning payg'ambari ekaniga iymon keltirib shahodat berishi kerak. Shunga asosan, Navoiy asarlarida Odam Atoni Muhammad alayhissalomning o'g'li sifatida talqin qilinishi juda ko'p uchraydi.

Xususan, “Xamsa”ning hamma dostonlarida bu talqin bor. Bunga sabab, komil inson g’oyasining izchil saqlanishidir. “Hayrat ul-abror”dagi birinchi na’t “Ul hazratning nuri qidamiyatidakim, zot bahrining avvalg’i junbushida ul durri bebaho lam’asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi’asi lam’a ko’rguzdi va durjdin durjg’a intiqol etti to Safiyullohdin (Odam Ato) Abdullohg’a (Muhammad a) yetti”. Binobarin, birinchi durj Odam Ato edi. Shu muqaddas nurni vujud libosiga kiritish va sinovlardan o’tkazish uchun durj qilib Odam Ato yaratildi.

Topti azal subhi chu bazming charog’,
Ne tong agar yorusa yuz ming charog’.
Bo’ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o’g’ul, so’ngra gar o’lsa ato.
Naslida har kim anga payvand o’lub,
Borchasi farzandingga farzand o’lub.
Kimki munga da’viyi hujjat etar,
“Kuntu nabiyyan” anga hujjat yetar [Навоий, 2011: 26].

Bu yerdagi “Kuntu nabiyyan” so’zlari yuqorida keltirilgan “Hali Odam...” deb boshlanuvchi hadisga ishora. Bundan keyin Odam ismini tashkil qilgan harflar ishtirokida shoirona talqin keltiriladi:

O’zga dalil istasa tab’i saqim,
Basdurur Odamda “alif”, “dolu”, “mim”.
Borchasi Ahmadda topib izzu shon,
O’g’lida uch harf atodin nishon.

Darhaqiqat, o’g’ilda otadagi hamma xususiyat emas, ba’zilar namoyon bo’ladi. “Ahmad”dagi “ho”dan boshqa harflar “Odam”da zuhr topgan. Shoir “ho”ni ham alohida baytda talqin qiladi:

“Ho”i muhabbat senga-o’qdur nasib
Kim, seni Haq dedi o’ziga habib.

“Muhabbat” so’zidagi “ho” harfi (Ahmad – Muhammad) sengagina nasib bo’ldi-yu, Haq taolo seni o’ziga habib qildi. Ya’ni bu “ho” harfi “Haq”da va “habib”da mavjud bo’lib, “Odam”da emas, “Ahmad”da qolishi Muhammadga Odam Atoga ham nasib bo’lmagan Haqqa muhabbat va do’stlikning saqlab qolgani alomatidir.

Navoiy yana deydi:
Ayladi chun Odami xokiy zuhur,
Soldi anga partavin ul pok nur.
Nur dema, boriqai sarmadiy,
Boriqa yo’q, sha’shai Ahmadiy.
Bo’ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon.

Tuproq – loydan yaratilgan Odam Ato vujudiga Muhammad (a) pok nurini nihon joylagan bo’lsa-da, bu nur uning yuzida zohir edi. Shu nur Odam avlodlarining saralanganlarida o’ta-o’ta uning haqiqiy egasi Muhammad (a)gacha keldi. Dastlab u Momo Havvoga o’tganida uning yuzi shunday porlab ketgan ediki, hurlar yuzini Haq nuri yoritgandek porlar edi. Nur kimga o’tsa, uni bilish qiyin emas edi. Havvo Shisni dunyoga keltirdi:

Shisqa chun bo’ldi yana muntaqil,
Oyni qilur erdi yuzi munfail.

Navoiy talqinicha, shu nur bilan Muhammad (a)ga yetganida durga sadaf pardapo'sh bo'lgandek ko'rinadi. Parda ko'tarilgach (Rasululloh tug'ilgach), boshqa bir bunday oftob tug'ilmagani ma'lum bo'ladi. Va nihoyat, payg'ambarlik yetgach:

G'am tunini nursirisht ayladi,
Yer yuzini bog'i bihisht ayladi.

Navoiy nuqtayi nazaridagi ideal Odam Ato bilan boshlanib Muhammad (a) bilan eng yuqori cho'qqiga ko'tariladi. Yer yuzini bog'i bihishtga aylantiruvchi zot shunday e'tiborga albatta loyiq.

"Layli va Majnun" dostonida ham, yuqorida ta'kidlanganidek, Odam Atoga Muhammad (a) ma'nan ota sifatida talqin qilinadi:

Odam shajaringg'a meva monand,
Farzandingga olam ahli farzand [Навоий, 2011: 15].

"Sab'ai sayyor" dostonida Muhammad (a) nurining Odam Atodangina emas, balki barcha olamlardan avval yaratilganiga, shu boisdan eng avval va eng oxirgi payg'ambar Muhammad (a) bo'lganiga urg'u beradi:

Balki Odam o'g'ullug'ingdin shod,
Valadingg'a jahon eli avlod.
Anga zohir taqaddumi oti,
Sanga lekin taqaddumi zoti.
Sen muqaddam demayki odamdin,
Qaysi odamki, borch olamdin.
Anbiyo xaylikim, kelib mursal,
Ham sen oxir alarg'a, ham avval [Навоий, 2011: 288].

"Saddi Iskandariy" dostonida ham Muhammad (a) haqida so'z borganda, albatta, Odam (a) haqida ham eslanadi. Masalan, dostonning XI bobida shunday satrlar bitilgan:

Ki, andinki Odam alayhissalom,
Xilofat saririda tutti maqom.
Anga tegrukim, shohi Makkiy laqab,
Ne Makkiy laqabkim, Rasuli arab
Muhammadki erdi rusul shohi ul,
Laduniy ulumning ogohi ul [Навоий, 2011: 68].

Demak, bu yerda ham Odam Ato Haq taologa xalifalik maqomini olishidan burun komil ideal, shohi Makkiy – ilohiy ilmlardan ogoh barcha rasullar shohi Muhammad (a) bo'lgani ta'kidlanadi.

Uchinchidan, komil inson g'oyasini ilgari surishda Odam Ato timsolidan unumli foydalaniladi. Umuman, adabiyotdagi odamiyotning asosiy xususiyatlaridan biri ham Odam Atoning qiyofasini o'ziga xoslik va poklik ramzi sifatida taqdim etishdir. U ko'pincha inson tabiati va aybsizligi, benuqsonligining timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu mualliflarga hayotning paydo bo'lishi, tarixning boshlanishi yoki haqiqatni izlash kabi turli xil mavzular va g'oyalarni yetkazish uchun uning tasviridan foydalanishga imkon beradi.

Aziziddin Nasafiy bir o'rinda komil insonni shunday ta'riflaydi: "Bilgilkim, komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatni to'liq egallagan odamni aytadilar. Agar bu iborani tushunmasang, boshqacha so'z bilan ayta: bilgilki, komil inson shunday insonki, unda to'rt sifat kamolga yetgan bo'lsin: ezgu so'z, ezgu amal (fe'l), ezgu axloq va maorif [Насафий, 2021: 7]... Maorifdan maqsad to'rt narsaning ma'rifatidir: dunyo

ma'rifati, oxirat ma'rifati, o'zlik ma'rifati va Parvardigor ma'rifati" [Насафий, 2021: 32]. Navoiyda komil inson bunday nazariy talqinlarda berilmaydi, faqat badiiy talqinlardan komil inson sifatlarini anglash mumkin bo'ladi. "Lisonu-t-tayr"dagi mana bu baytda ham odamzodning o'z zohir va botiniga munosabati orqali komillik belgisi ifodalanadi:

Odam o'lg'on zebi zohirdin demas,

Kimki ondin faxr etar odam emas [Навоий, 2011: 56].

Darhaqiqat, Nasafiy deydi: "Ey darvesh! Kimki donishmand odamning nazdida va suhbatida riyozat va mujohada tariqini ixtiyor etsa, zohir va botini rost bo'lur. Solikning zohir va botini rost bo'lgach, solikning ishi tugal bo'lur. Ya'nikim, solikning zohiri botini kabi pok bo'lsa, o'shanda ichki olami bilan tashqi qiyofasi bir xil bo'lur. Zohir pok bo'lmaguncha, botinda munavvar bo'lish qobiliyati bo'lmas" [Насафий, 2021: 60].

Komil insonning yana bir fazilati ifodalangan "Odamiy ersang demagil odamiy, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami", degan baytni atoqli alloma Alibek Rustamov sharhlab, undagi o'n fazilatni qayd etadi [Русамов, 1979: 3-5]. Bularga shuni ham qo'shish mumkinki, Odam Ato va odamiy, ya'ni uning avlodi yer yuziga, yer yuzidagi barcha mulkka Haqning xalifasi qilib yaratilgan ekan, o'sha mulkning – barcha yaratilqlarning g'amini yeyishi, ularga g'amxo'r bo'lishi lozimligi baytda ta'kidlangan. Zotan, "xalq" so'zi faqat kishilar jamoati ma'nosini ifodalash bilan cheklanmaydi.

To'rtinchidan, Odam Ato obrazi orqali olam, hayot go'zalligi, odamiylik bilan faxrlanish va shu bilan birga, dunyoning o'tkinchiligini anglash hissi talqin qilinadi. "Hayratu-l-abror" dostonida shunday bayt bor:

Subhi azal qildi chu dehqoni sun',

Odami xokiyni gulistoni sun' [Навоий, 2011: 61].

Bu yerda Haq taolo dehqonga o'xshatilsa, xokiy Odam gulistonga mengzaladi. Zero, olamni guliston qiluvchi inson ekani ham baytda shu yo'sin ta'kidlanmoqda. Binobarin, olamning go'zalligi inson bilan mukammaldir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning Odam Ato timsoliga murojaatlari va uni odamiyot ijodiy yo'li kontekstida o'rganish yirik tadqiqotlarga asos bo'la oladi. Bunga, bir tomondan, shoirning har bir mavzuni balog'at va fasohatning yuqori darajada talqin eta olgani imkon bersa, ikkinchi tomondan odamiyotning bugungi kunda dolzarb falsafiy va adabiy tushuncha bo'lib qolayotgani zamin yaratadi. Bu ijodiy yo'nalish Inson tabiati va mavjudligi mohiyatini va uning idealga qaytish potensialini tushunishga imkon berishi bilan adabiy va falsafiy nuqtayi nazardan asosiy mavzular sifatida maydonga chiqadi. Jamiyat va fan-texnologiyalar rivojlanishi ta'sirida bir qadar chetda qolayotgan samimiyat, poklik va vatanparvarlik g'oyalarini tarannum etish adabiyotning, undagi odamiyot yo'nalishining abadiy vazifalaridan bo'lib qoladi. Bu g'oyalar ustuvorligini ta'minlashda Alisher Navoiy asarlari eng yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar (references)

1. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. II ж. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. VI ж. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. VII ж. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.

4. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. VIII ж. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
5. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. IX ж. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
6. Инжил. Тавротдан “Ибтидо”. Забур. – Стокгольм: Библияни таржима қилиш институти, 1993.
7. Насафий, Азизиддин. Комил инсон китоби (О. Давлатов таржимаси). – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2021.
8. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
9. فرهنگ اصطلاحات و تعبيرات عرفانی. سيد جعفر سجادی. – تهران: طهوری. 1370. س. 196.
10. АКМЕИЗМ, ИЛИ АДАМИЗМ – Литературная энциклопедия - Литература - Slovar.cc
11. <https://mebelniyguru.ru/wiki/adamizm-v-literature-osobennosti-i-opredelenie>
12. <https://mebelniyguru.ru/wiki/adamizm-v-literature-osobennosti-i-opredelenie>
13. Писатель Джон Мильтон: биография и библиография.
14. 62-КИТОБ / 62 | Naadis.islom.uz | Нубувват марваридлари
15. <https://www.bing.com/search?pglt=41&q=Xammartu+tiynata+Odama+biyadiy&cvid=6803c09c>

XORAZM ADABIY MUHITIDA DEBOCHANAVISLIK AN'ANALARI

Karimova Faridaxon Isakovna,

filologiya fanlari doktori, dotsent, Namangan davlat universiteti

faridaxonk@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YUVK2847

Резюме: Maqolada Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Tabibiy kabi iste'dodli vakillari ijodida Alisher Navoiyning devonga debocha yozish an'analari ijodiy davom ettirilganligi xususida fikr yuritilgan. Mazkur shoirlar devonlariga bitilgan debochalardagi an'anaviylik va o'ziga xoslik masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm adabiy muhiti, devonchilik an'analari, debocha, hamd, na't, devonning yaratilish tarixi, an'ana va o'ziga xoslik.

TRADITIONS OF DEBOCHANAVIS IN THE KHOREZM LITERARY ENVIRONMENT

Absrtact. This article explores the creative continuation of the tradition of writing prefaces to the divan of Alisher Navoi, specifically in the works of prominent representatives of the Khorezm literary milieu, including Munis, Ogakhi, and Tabibi. The study critically examines the interplay of tradition and originality in the prefaces to their divans, analyzing how these poets both adhered to and innovated upon established literary conventions. Through this analysis, the article highlights the distinctive features of their contributions and evaluates the evolution of preface-writing within the context of Khorezm's literary development.

Keywords: Khorezm literary environment, divan traditions, preface, hamd, nat, history of the creation of the divan, tradition and uniqueness.

Ma'lumki, Xorazm azaldan madaniyat beshigi bo'lgan zamin. U o'z bag'rida jahon ilm-fani, madaniyati va san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan o'nlab qomusiy olimlarni, shoir-u allomalarni kamolga yetkazgan. Xususan, XIX va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti har jihatdan gullab-yashnadi; mumtoz adabiyotdagi devonchilik an'analari ijodiy rivojlantirildi, adabiy tur va janrlar rivoj topdi, tarixnavislik va

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVAII'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622